

## **“BOBURNOMA”DA FORSCHA OLD QO’SHIMCHALARNING QO’LLANILISHI VA MA’NOLARI**

**JDPI O’zbek tilini o’qitish metodikasi kafedrası  
katta o’qituvchisi, Abduvaliyev A.A.  
JDPI O’zbek tili va adabiyoti fakulteti  
III bosqich talabasi Ummatova H.Y**

*“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarmiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta, bo’ladi”.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

Hozirgi zamonda ta’lim va tarbiyani bir – biridan ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. O’z navbatida til va adabiyot o’qituvchisidan ta’lim – tarbiyani ko’kaldoshdek qilib o’tish talab etiladi. Talabalarga fan asoslari bilan bir qatorda, mumtoz asarlarni ham o’rgatish alohida e’tiborga molikdir. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning ”Boburnoma” asarini yoki qo’lyozmasini o’qib, uni tushunib olish oz – muncha og’irdir. Chunki asarda ayrim o’zbekcha, arabcha va forscha so’zlarni ma’nosini bilishda o’quv lug’atlardan foydalanishga to’g’ri keladi. Asarda forscha so’zlar bilan bir qatorda o’zbek tilida kelishik ma’nolarini anglatuvchi predloglar (old ko’makchilar) ham qo’llangan.

O’zbek tilidagi qaratqich ma’nosini anglatuvchi – ning qo’shimchasi o’rnida “Boburnoma”da fors izofasi “-i(-yi)” dan foydalanilgan. Bu qo’shimcha, asosan, aniqlovchi – aniqlanmish, qaratqich – qaralmish o’rtasiga qo’yilgan. O’zbek tilidan farqi shuki, fors izofasi yordamida kelgan birikmalarda aniqlanmish va qaralmish birinchi o’rinda, aniqlovchi va qaratqichlar ikkinchi o’rinda keladi. Masalan, asardagi aniqlovchili birikmalar tarkibida ot+sifat, ot+sifatdosh, ot+ravishdosh kabi so’z turkumlari kelishi mumkin: qo’rg’oni baland – baland qo’rg’on (9 – bet), dunyoyi foniy – foniy dunyo (13 – bet), Darvozayi Ohanin – Temirli Darvoza (75 – bet), Ko’yi poyon – Pastki tog’, Bog’i Nav – Yangi bog’ (172 – bet), Bog’i

Safid – Oq bog’(172 – bet), Bog’i Jahonora – Jahonoro bog’I (172 – bet), Chirki dunyo – dumyo kiri (186 – bet), Bog’i Kalon – Katta bog’ (225 – bet), Jo’yi Shohiy – shoh arig’, Ko’hi Safid – Oq tog’(254 – bet), Sangi taroshida – yo’nilgan tekislangan tosh (301 – bet), Poyi cho’bin – yog’ochli oyoq (324 – bet) va boshqalar. Yuqoridagi izofiy birikmalar tarkibida ot, sifat, sifatdoshlardan tarkib topgan so’zlar qo’llangan va bu bilan birga – i qo’shimchasi bilan qaratqichli birikmalar ham qo’llangan. Bunday birikmalarda ot+ot, olmosh+ot, ya’ni forscha+forscha, forscha+o’zbekcha, o’zbekcha+forscha va arabcha+forscha qolipidagi so’z birikmalari ishtirok etgan. Bu so’z birikmalari quyidagilardir: sebi Samarqand – Samarqandning olmasi (7 – bet), anori Xo’jand – Xo’jandning anori (7 – bet), obi dara – daraning suvi (139 – bet), Bog’i Bihisht – Jannatning bog’i (178 – bet), dehi Afg’on – Afg’on qishlog’I (217 – bet) va boshqalar. Bundan tashqari asarda qaratqich – qaralmish ma’nolarida qo’llangan joy nomlari ham mavjud. Masalan, Domani ko’h – tog’ etagi (220 – bet), Jo’yi Shohiy – Shoh arig’i (223 – bet), Dehi Ya’qub – Ya’qub qishlog’i (228 – bet), Pushtagi Ko’hi – tog’ orqasi kabi joy nomlarini anglatuvchi so’z birikmalari ham qo’llangan.

Asarda forscha hozirgi zamon sifatdoshlari hosil qilingan so’z birikmalari ham mavjud. Ma’lumki, forscha sifatdoshlar hozirgi zamon fe’l negiziga – o, –on, –anda qo’shimchalari qo’shilishi bilan yasaladi. Bunday so’z birikmalari asardagi quyidagi o’rinlarda qo’llanilgan:

–Nijrov tog’larida ro’bayi parvon bo’lur. (123 – bet) Majlisi ahli guzaro mastar bo’lub edilar. (225 – bet) Regi ravonni sayr qilib Qosimning Bulbulining uyiga tushub suhbat tutuldi. (228 – bet)

Yuqoridagi jummalarda parron – uchar, uchadigan; guzaro – o’tuvchi, o’tadigan; ravon – yuradigan so’zlari yordamida hosil qilingan aniqlovchili birikmalar ishtirok etgan. Bunday so’z birikmalar qaratqich ma’nosini anglatuvchi – i izofasi yordamida yasalgan. Asarda izofiy birikmalar yordamida yasalgan so’z birikmalari juda ko’p uchraydi.

O’zbek tilida qo’llangan ayrim old qo’shimchalar “Boburnoma” asarida ham qo’llangan. Asarda jo’nalish kelishigi ma’nosini anglatuvchi ba–, bar–

qo'shimchalari qo'llangan. Ma'lumki, o'zbek tilida, asosan, – ga qo'shimchasi qo'llanadi. Asarda qo'llangan “ba” ko'makchisi bilan “bar” ko'makchisi rus tilida “ba” – “B” – “-ga”, “bar” – “Ha” – (ustiga) degan ma'nolarda qo'llaniladi. “Boburnoma”dagi “ba” predlogi o'zbekcha sifat yasovchi – li, jo'nalish kelishigi – ga va takroriy so'zlar tarkibida “– ma” qo'shimchalarning ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan:

– Elga nasihat qilib tavahkumni xotirlaridan chiqarg'ay, to el qo'rqunchdik sar ba bod bermag'aylar. (50 – bet)

– Ushbu sitezalardin va rustoyiliqlaridin edikim, xonumonlarini va o'ttuz – qirq yil qo'zg'olonlarni bar bod berdilar. (189 – bet)

Shamolga, yelga, ro'baro' so'zida esa yuzma – yuz ma'nolarida ishlatilgan. Badavlat (157), batacalluf (160), bajoy (107, 141) kabi so'zlarda sifat yasovchi qo'shimcha sifatida qo'llangan, ya'ni badavlat – davlatli, batacalluf – takallufli, bajoy – joyli ma'nolarida kelgan. “ba” predlogi takroriy so'zlar tarkibida qo'shib yoki chiziqcha bilan ajratib yozilganini ko'ramiz. Asarda “bir joydan boshqa joyga o'tish” ma'nosini bildiruvchi quyidagi so'zlar ham qo'llangan “ko'ch bako'ch(79), ko'ch bar ko'ch (188,236,275), ko'choko'ch (208). Garchand ushbu birliklar yozilishi jihatidan bir – biridan farq qilsa – da, aslida ular ma'nodoshdir. “bar” qo'shimchasi yordamida kelgan ayrim takroriy so'zlar – “o'tish, ko'chish” ma'nosida kelishi mumkin. Masalan: “– Biz ko'ch – bar – ko'ch mutavajjihdur biz, biz yetquncha urushqunchi bo'lmasunlar”. (238)

Takroriy so'zlarda “ba”, “bar” predloglari qo'shib yoki qo'shilmasdan yozilishi mumkin. Bu predloglar, asosan, forscha, ayrim o'zbekcha va arabcha so'zlarning tarkibida keladi. Agar forscha so'zlar tarkibida kelsa va bu so'zni o'zbekcha ekvivalenti bo'lmasa, forscha so'z chiziqcha bilan yoziladi. Agar bu so'zlarni o'zbek tilida ma'nodoshi bo'lsa, predlog yordamida yasalgan so'zlar qo'shib yoziladi.”Boburnoma”da ham ushbu qoidaga amal qilingan holda yozilgan. Masalan: yuzma-yuz – ro'baro'(54,61,188,190), eshikma-eshik – darbadar (238), uyma-uy – xona baxona, boshma-bosh – sarbasar (314) yoki tah – batah, ko'ch – bako'ch, ko'ch – barko'ch kabi so'zlarda to'liq o'zbekcha ma'nodoshi bo'lmagan-

ligi uchun chiziqcha bilan yozilgan. Ayrim soʻz va soʻz birikmalari fors va oʻzbek tilida bir maʼnoda kelishi mumkin. Bunday holda har ikki tilda ham chiqizcha orqali yoziladi. Masalan: koʻchoq (koʻchidan), koʻcha (koʻcha), tah (tah) kabi soʻzlarda chiziqcha bilan yozilgan (koʻch – ba koʻch (90), koʻch – bar koʻch (275) tah – batah (182,219) kabilar)

Asarda qoʻllangan ayrim predloglarning kelishik yoki sifat yasovchi qoʻshimcha maʼnosidan boshqa maʼnolarda ham kelganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan: – Kajxulqligʻidin mirzo batang keldi, oxir quydiva xalos boʻldi, ne qilsun haq mirzo jonibi erdi.(152).

– Oqibat ushbu dagʻ – dagʻalardin mol va joni va xonumoni barbod bordi. Bu jumalardagi batang – ahvoli ogʻir, barbod – tugadi, tamom boʻldi, shikastlandi maʼnolarida qoʻllangan. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, forscha predloglar oʻz maʼnolaridan tashqari boshqa maʼnolarda ham kelishi mumkin ekan.

“Oʻzbek tili grammatikasi”(I tom, 288 – bet) “bar” qoʻshimchasi haqida maʼlumot berib, bu yasovchi faqat uch – toʻrt soʻzdagina uchraydi: barvaqt, barkamol, bardosh va boshqalar. Lekin “bardosh” soʻzidagi “bar” qoʻshimchasi “barkamol”, “barvaqt” kabi soʻzlardagi “bar” qoʻshimchasidan farq qiladi. Chunki fors tilida prefiksli (old qoʻshimcha) feʼllar mavjud boʻlib, “bar” qoʻshimchasi “doshtan”(ega boʻlmoq, bor boʻlmoq)feʼlining oʻtgan zamon negizi “dosht” ga qoʻshilib bardosht, oʻzbek tilida ushbu soʻz bardosh, yaʼni “koʻtardi, chidadi”degan mustaqil maʼnolarni bildiruvchi soʻz sifatida qoʻllaniladi. Bu soʻzning hozirgi zamon shaklida ham oʻzbek tilidagi –dor(ega, bor, –li) qoʻshimchalari oʻrnida, bardor – koʻtar, chida maʼnosida ishlatiladi. Maʼlumki, “bar” hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham soʻz, ham soʻz yasovchi qoʻshimcha sifatida qoʻllaniladi. Soʻz sifatida forscha “burdan”– olib bormoq feʼlining hozirgi zamon shakli “bur”– olib bor maʼnosida qoʻllaniladi. Masalan: rahbar – yoʻl boshlovchi, yoʻl koʻrsatuvchi, yoʻlda olib boruvchi, safarbar – safarga olib boruvchi, safarga chiqarish, dilbar – yurakni oʻziga jalb qiluvchi, chiroyli maʼnosida qoʻllaniladi. “bar” joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi “-ga” qoʻshimchasi maʼnosida ishlatiladi.

Lekin o'zbek tilidagi "-ga" qo'shimchasidan birmuncha farq qiladi. Xuddi rus tilidagi "в" – "на" kabi "bar" – ruscha "на"– ustiga, tepasiga degan ma'noda ishlatiladi."Boburnoma"da ham "bar" qo'shimchasi "yuqoriga" degan ma'noda qo'llanilgan.

- Bardast aytdilar: "Mundoq etib qayon borasiz".
- Bu el burun to'ng'uz saxlar edilar, bizning zamonda bartaraf qildilar.(162)
- Oqibat ushbu dag'dag'alardin mol va joni, xonumoni barbod bordi.(161)
- Xonumonlarini va o'ttuz – qirq yil qozg'onlarini barbod berdilar. (188)
- Andin ko'chbarko'ch yurub kelib, Guzarg'a tushtuk. (188)

Ushbu jumalarda bardast – qo'lga, bartaraf – tomonga, barbod – shamolga yoki qo'shma fe'llar tarkibida kelib, "tugadi,tamom bo'ldi" ma'nolarini anglatadi.

"Boburnoma"da o'rin – payt kelishigi ma'nosida qo'llangan forscha "dar" yoki ayrim hollarda g'azallarda qo'llanadigan "andar" predloglari yordamida yasalgan.

so'z va so'z birikmalari ham qo'llangan. "dar" predlogi ham yuqoridagi "ba","bar" predloglari kabi ishlatilgan."dar" predlogi ot, olmosh kabi forscha so'zlar yoki arabiy so'zlar tarkibida kelsa, o'zbekcha o'rin – payt kelishigi ma'nosida keladi.

- Bovujudkim, Hisor viloyati muhaqqar va muxtasar viloyatdur, ulufasi ming tamon bulus qilib, Xatlon viloyatini dardast qildi.(53)

- Tulkusi bisyor bo'lur, darkamin bo'lur, tulkusi o'zga yerning tulkusiga boya yugurch bo'lur.(65)

- Buxoroni darbast Boqi olib erdi.(69)

Ushbu jumalarda qo'llangan dardast – qo'lda, darkamin – ovda bekinadigan joy, darbast so'zi ham qo'lda ma'nosida berilgan. Forscha fe'llarga qo'shilib, prefiksli fe'llar tarkibida qo'llangan."xohlamoq" – "xostan" fe'lining o'tgan zamon negizi, "bastan" – "bog'lamoq" so'zining o'tgan zamon negizi "xost" va "bast" degan so'zlarning tarkibida qo'llangan.

- Bu xayol bilakim, Jahongir agar ilikka tushgan bo'lsa, darxost qilg'ay.(65)

- Uning daromadi buromadidan ko'p edi. "omad"– keldi so'ziga "dar" predlogini qo'shilishi bilan "daromad" so'zi o'z ma'nosini o'zgartirib, "kirdi, kirim"ma'nosida qo'llangan. Asardagi ayrim so'zlar

tarkibida “dar” predlogi o‘zbekcha – ma yoki – ga ma’nosida kelishi mumkin.

Masalan: – Bu daraxtlarning orasida bir dahi dardah chohe buyurib erdim, ul choh itmomig’a yeta yorushuptur.(312)

–Bir dahi – dardah bo‘lg‘on yerini tahorat uchun yasattum.(345)

Asarning bir necha o‘rinlarida “dar” predlogi o‘rnida “andar” predlogi ham qo‘llangan.

– Bu Andaroba (suvda) qo‘rg‘oni Malik Hastning otasig‘a qadimdin taalluq ekandur.(200)

Yuqoridagi “ba” qo‘shimchasi singari ayrim so‘zlarda o‘zbekcha – ma qo‘shimchasi ma’nosida qo‘llanilgan. – Turdi Muhammadqa ham mastlar to‘la – to‘la ayoqlarini pay – darpay berib, oz fursatda masti loyaqil qildilar.(208)

Ayrim so‘zlarda esa Bobur “dar” predlogi o‘rnida takroriy so‘zlarga “o” tovushini qo‘shib yozgan, lekin “dar” ham “o” ham o‘zbek tilida bir ma’noni anglatadi.

– Bizga payo – pay xabar keldikim, g‘anim kishisi yovuq keldi.

Ushbu gaplarda payo – pay, pay – darpay so‘zlari o‘zbek tilida poyma – poy, izma – iz tarzida qo‘llangan. O‘zbekcha o‘rin – payt kelishi ma’nosida qo‘llangan forscha ko‘makchilar ayrim jumalalarda “dar” –“-ga” ma’nosida, “ba” – “-da” ma’nosida kelishi mumkin. Chiqish kelishigi – dan o‘rnida esa “az” predlogi qo‘llangan. –“Avval salom ba‘d az on kalom.–Birinchi salom, undan keyin so‘zla” deganidir. “az baroyi Xudo, az baroyi shifo” birikmalarida “baroyi” – uchun ma’nosida qo‘llangani uchun “az” predlogi o‘z xususiyatini yo‘qotadi. “dar” ko‘makchisi esa ayrim so‘zlarda qo‘shilib, ayrimlarida ayro holda kelishi mumkin.

Yuqorida qayd qilganimizdek, “dar” predlogi o‘zbekcha jo‘nalish kelishigi ma’nosida qo‘llangan. – “Bu daraxtlarning orasida bir dahi dardah choha buyurib edim”. "dahi dardah" – o‘nga o‘n tarzida tarjima qilinadi.

Ayrim jumalalarda bo–, to–, be– kabi old ko‘makchilaridan iborat jumalar keltirilgan. “bo” – ko‘makchisi so‘zlarga qo‘shilib kelganda sifat yasovchi – li qo‘shimchasi ma’nosida, agar so‘zdan oldin kelib, alohida talaffuz qilinsa, “bilan” ko‘makchisi ma’nolarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, boodob – odobli, bo odob – odob bilan, buvujudi – vujudli, bo vujudi – vujudi bilan.

“to-” ko’makchisi esa o’zbek tilida – gacha tarzida tarjima qilinadi. Lekin “to” ko’makchisi o’z ma’nosida “to” shaklida tarjimasiz holatda qo’llaniladi: “Bu fasil sar – tosar emas, obrid maslahatig’a bu fasilni igirgandurlar”.(314) “sar – tosar” birikmasini – gacha o’rniga – ga shaklida, ya’ni “boshdan boshga” tarzda tarjima qilinishi mumkin.

Z.M.Bobur o’z asarida forscha so’zlardan tashqari, old ko’makchilar va izofiy birikmalardan ham foydalangan. Ayrim jummalarda forscha qoidalariga, ayrim gaplarda esa o’zbekcha qoidalarga amal qilgan holda foydalanganligini ko’ramiz. Bu yozuvchining har ikki tilni mukammal bilganligidan dalolat beradi. Asarda, shuningdek, yuzdan ortiq so’zlar va qo’shma so’zlar tarkibida ko’makchilarni ko’rishimiz mumkin. Shuning uchun ham “Boburnoma”ni mukammal bilish uchun har ikki tilga doir lug’atlardan foydalanishga to’g’ri keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Abdusamatov M. “Fors tili”, Toshkent. “O’qituvchi”, 2007 – yil.
2. Xalilov L. “Fors tili”, Toshkent. “O’qituvchi”, 2007 – yil.
3. Shamsiyev P. “Boburnoma”, Toshkent. “Yulduzcha”, 1989 – yil.
4. Abdurahmonov G’.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiyev A. “O’zbek tili grammatikasi”, Toshkent. “Fan” nashriyoti, 1975 – yil.